



# E CONF SERIES



**International Educators Conference**

**Hosted online from Toronto, Canada**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> April, 2025

## **ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNI JAMIATGA INTEGRATSIYALASH**

Sa’dullayeva Farida

Toshkent davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika fakulteti

Surdopedagogika yo‘nalishi 2-kurs talabasi

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy, adabdatsiya, korreksiya, surdopedagog, jamiatga integratsiyalash.

### **Annotatsiya / Abstract:**

**Uz.** Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni jamiatga moslashtirish chora-tabirlari bolalarning ota-onalari, o‘qituvchi va tarbiyachilar e’tibor berishi kerak bo‘lgan masalalarda haqida so‘z boradi.

**Ru.** О мерах по адаптации детей с нарушениями слуха к жизни в обществе говорят в вопросах, на которые должны обратить внимание родители детей, педагоги и воспитатели.

**An.** Measures to adapt children with hearing impairments to society address issues that children's parents, teachers, and caregivers should pay attention to.

**Krish:** Nutq – murakkab ruhiy faoliyat, ijtimoiy hodisadir. Nutq eshituv organlari orqali idrok etiladi va har bir insonda taqlid qilish orqali rivojlanadi. Har bir inson so‘z tarkibini farqlay olishi, anglab yetishi bu eshituv analizatorlari va ularni boshqaruvchi markazlarning sog‘lom ekanligidan dalolatdir.

Mutaxasislarning fikriga ko‘ra eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning rivojlanish darajasi shu nuqsonni bola hayotining qaysi davrida paydo bo‘lganligiga va og‘ir-yengilligiga bog‘liq degan fikrlarni bildirgan.

Boladagi nuqson qancha erta aniqlansa va korreksion-pedagogik ishlar qanchalik tez boshlansa bolani jamiatga integratsiyasi shunchalik osonlashadi.

Korreksiya –bola nuqsonini bartaraf etish yoki bilinmaydigan darajaga olib kelish chora-tadbirlaridir. Jamiatga integratsiya esa jamiatga qo‘sish, moshlashtirish.

Jamiatda eshitishda nuqsonli bolalarni kamaytirish uchun ota-onalardan farzandiga nisbatan e’tiborli bo‘lishi talab etiladi. Chunki bolani hayotining eng muhim



# E CONF SERIES



## International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> April, 2025

qismlari ona qornida va ota-onada bag‘rida bo‘ladi. Shu davrda onani sog‘ligiga va tug‘ilgandan keyin bolaga katta ma’suliyat bilan yondashish talab etiladi bolani quloqlarini yod jism zararlantirmasligiga va ona bolani quloqlarini tozalayotgan vaqtida o‘tkir tig‘li buyumlardan foydalanmasligiga, shamollaganida o‘zlaricha davolamay shifokorga olib borishlari talab etiladi.

Eshitishda nuqsonlari bo‘lgan bolalarni maktab va bog‘chalardagi o‘qituvchi va tarbiyachilar ham nazoratida bo‘lishi bolalarni lor-pediatr bilan birgalikda o‘rganib tuzatsa bo‘ladigan eshitish nuqsonlarini vaqtida, tezlik bilan aniqlashi, kar va zaif eshituvchi bolalarga qo‘llaydigan metodlarni farqlay olishi, to‘laqonli kar bola juda kam uchrashini hisobga olgan holda ulardagi eshtuv qoldig‘larini rivojlantirishlari va nutqiga ahamiyat berishi kerak.

Maxsus maktab internatlarda bolalar eshitish qobiliyati qay darajada ekanligiga emas balki nutqini saqlanganlik darajasiga qarab ajratiladi. Kar va zaif eshituvchilarining asosiy farqi ham shunda ya’ni nutqidadir. Maxsus maktab internatlarning asosiy vazifasi eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni nutqini chiqazish va jamiyatda o‘z xohish va ehtiyojlarini ifodalay olishi yoki eshituv apparatlari orqali sog‘lom insonlar kabi ravon nutqqa ega bo‘lishlarini ta’minalashdir. Bu kabi jarayonlarda o‘qituvchi va tarbiyachilar kabi ota-onada ko‘magi bilan yuqori natijalarga erishish mumkin. Ota-onada o‘z farzandi bilan ko‘proq muloqotda bo‘lishi va maktab vazifalarini birgalikda tayyorlashlari, nutq o‘stiruvchi o‘yinlar o‘ynashlari va ta’til paytlari ularni oila davrasida bo‘lishlarini ta’minalash. Ko‘ngilochar xiyobonlarga, bog‘larga sayrga tez-tez olib chiqishlari, bolalar maydonchalariga olib borishlari eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni jamiyatga adabdatsiyasini yanada osonlashtiradi, adabdatsiya bu-moslashishdir. Bu borada surdopedagoglarning va ota-onalarning olib borayotgan izlanishlari o‘z samarasini bermasdan qolmaydi. Shuni ham ta’kidlash joiz-ki kar va zaif eshituvchi bolalar jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida ko‘pgina sohalarda sog‘lom tengdoshlari kabi faoliyat olib bora olishlari o‘z isbotini topib kelmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. M.U. Xamidova. “Maxsus pedagogiga ‘ (mutaxasislikka kirish). Toshkent-2018.
2. M. R. Po‘latxo‘jayeva “Defektalogiyaning klinik asoslari”
3. V.S.Raxmanova “defektalogiya asoslari” (korreksion pedagogika) Toshkent.

Niso poligraf-2017.